ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 1

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 29.01.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV, iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Amonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 29.01.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www. philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)

Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)

Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)

Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)

Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)

Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)

Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)

Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)

Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Шоира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 29.01.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Amonturdieva, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

SOBIROV ABDULHAY SHUKUROVICH
Globallashuv jarayonlarida o‘zbek tilining tutgan o‘rni 7

FAYZIYEVA XADICHA CHORUYEVNA
Boysun-Sho‘rchi o‘zbek shevalarida
qon-qarindoshlikni bildiruvchi atamalar 11

ШУКУРОВ АБДУЛАХАД АХМАДОВИЧ
Поэтик матнда форс-тожикча
ўзлашмаларнинг қўлланилиши..... 15

SIDDIQOV JAHONGIR NOSURULLOYEVICH
Ichki imkoniyat asosida yasalgan
ergonimlarning lingvistik tadqiqi..... 18

HAQBERDIYEVA SAGINA SHOMUROT QIZI
“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da berilgan
dizayn terminlari haqida mulohazalar..... 22

XAYDAROVA DILNOZA
Milliy qandolatchilik terminologiyasiga doir..... 25

BOYNAZAROV ISLOM
Development of some philosophical
terminology in uzbek and english languages..... 28

МУНДАРИЖА

ADABIYOTSHUNOSLIK

КУРБОНОВ АБДУМАЛИК
Навоий ижоди бўйича илмий қарашлар
(Айшеҳан Дениз Абикнинг тадқиқоти мисолида)..... 32

DJURABAYEVA ZAMIRA AXMEDOVNA
Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va
faoliyati – ibrat maktabi 35

NIGORA ESANOVNA ERKINOVA
Eshqobil Shukur she’rlarida badiiy san’atlar va
ularda leksik birliklarning qo‘llanish xususiyatlari..... 38

PROFESSOR JABBOR OMONTURDIYEV..... 42

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 1
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING HAYOTI VA FAOLIYATI – IBRAT MAKTABI

Djurabayeva Zamira Axmedovna,
Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Bugun "Yangi O'zbekiston uchun, yangi hayot uchun tilda, fikrda, ishda birlik" shiori ostida butun mamlakatimizda keng ko'lamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar davom etmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2023-yilning 22-dekabr kuni Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan selektor yig'ilishida: "Tarixdan ma'lum: Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uyg'oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san'at namoyandalari, ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar", – degan fikrni alohida ta'kidlab o'tdi[1].

Ular orasida shoh va shoir, mahoratli harbiy sarkarda, zukko tarixchi, qomusiy olim Zahiriddin Muhammad Bobur o'z o'rniga ega. U haqda kitob yozgan ingliz yozuvchisi Uilyam Rashbruk shunday degan edi: "Bobur sakkizta eng asl xislatlar sohibi edi. U saxovatpesha, shijoatli va mard, matonatli, adolatpeshalik fazilatlariga ega bo'lish bilan birga mohir qo'mondon, irodasi mustahkam hukmdor, o'z yaqinlariga g'amxo'r va g'ayratli inson ham edi. U amalga oshirgan ishlar umrboqiy davom etmoqda. Ulkan davlatni boshqarish borasida Bobur shoh ilgari surgan g'oyalar bizning zamonamizgacha u hukmdorlik qilgan joylarda hanuz amalda qo'llanib kelmoqda[2].

Bobur xarakterida bugungi hamyurtlarimizga, ayniqsa, yosh avlodga ibrat bo'ladigan jihatlar istagancha topiladi. Uning g'azallari, ruboiylari, "Boburnoma" asari yuksak darajadagi vatanparvarlik, yurtparvarlik, xalqparvarlik, bunyodkorlik, yaratuvchanlik g'oyalari bilan chuqur sug'orilgan. Hozirgi shiddatli, tahlikali zamonda jahon ahliga o'rnak bo'lgudek fazilatlar uning xarakterida jamuljam bo'lgan edi. Janggohlarda umri o'tganiga qaramasdan, "Devon" tartib berdi, "Harb ishi", "Mufassal", "Mubayyin", "Musiqa ilmi" kabi asarlarni, 18 yoshida "Xatti Boburiy"ni yaratdi. Xoja Ahror Valiyning "Volidiya" asarini turkiyga tarjima qildi. U hind, afg'on yerlariga qurol ko'tarib, ularni talash, parokanda qilish, dahshatga solish, boylik orttirish uchun emas, Yaratganning izmi bilan ularni birlashtirish, jipslashtirish, tarqoq qabilalarni yagona davlat bayrog'i ostiga to'plash maqsadida bordi. Bu ezgu g'oyalar XX asr boshlarida millatni uyg'otish, uni harakatga keltirish, birinchi galda ilmli qilish yo'lida jonini fido aylagan jadidchilik harakati namoyandalarining qarashlariga har jihatdan hamohang keladi. Bobur g'azallaridan birida shunday satrlar bor:

"G'aflat uyqusidin uyg'on gar tilar bo'lsang murod,
Kim, yetar maqsadg'a har kim bo'lsa ul bedorroq"[3].

Ruhan uyg'oqlik, xalq dardida tun-u kun bedor yashash, ulug' maqsadlari yo'lida intilish shoir she'rlarining yetakchi g'oyalaridan birini tashkil etadi. Garchi o'sha davr taqozosi bilan ona yurtini tashlab chiqib ketgan bo'lsa-da, Bobur butun umri davomida o'z yurtiga intilib yashadi. Vatanidan uzoqqa ketishni "yuzi qoralik" deb bildi, o'zga yurtda shoh bo'lsa ham, o'zini benavo, miskin, g'ariblar qatoriga qo'shdi. Uning barcha asarlarida bu ruh ustunlik qiladi. Bobur ruboiylarining birida shunday deb yozadi:

"*Ko'pdin berikim, yor-u diyorim yo'qtur,*
Bir lahza-yu bir nafas qarorim yo'qtur.
Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla,
Lekin borurimda ixtiyorim yo'qtur"[4].

Bunday haroratli, o'tli, ko'ngil isyoni ufurib turgan misralarni bitish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Bu kabi Vatan, ona diyor sog'inchi, ushalmas orzu-armonlar shoirning "G'urbat ichra, ey ko'ngil, eldin vafo istarni qo'y, Chun vafosin ko'rmading hargiz diyor-u yorning", "Dema Boburga netarsen, bosh olib ketmak ne? Tengrining xosti mundoq esa, men netgaymen?", "Yuz javr-u sitam ko'rgan, ming mehnatu g'am ko'rgan, Osoyishe kam ko'rgan mendek yana bir bormu?" ko'rinishidagi satrlarida bor bo'y basti bilan namoyon bo'ladi[5].

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan selektor yig'ilishida so'zlagan nutqi//Yangi O'zbekiston, № 267 (1056), 2023-yil 23-dekabr

[2] Рашбрук Вильям. Ўн олтинчи аср бунёдкори. – Тошкент: Шарқ НМАК Бош компанияси, 2011. –Б.205.

[3] Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Ғарибинг андижонийдур. – Тошкент: Шарқ НМАК Бош компанияси, 2011. –Б. 67.

[4] Юқоридаги манба –Б. 167.

[5] Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Ғарибинг андижонийдур. – Тошкент: Шарқ НМАК Бош компанияси, 2011. –Б. 75.

Bobur haqida taniqli olim Qamar Rayis shunday yozadi: “Gapning rosti, tabiat bu tog‘li Farg‘ona vodiysiga mislsiz husn ato etgan, Bobur esa uning shaydosi bo‘lgan. Tabiatning mana shu so‘lim go‘shasida Boburning shoirona tafakkuri kurtak ochgan. Uning bog‘lari, chinorlari, shakardan shirin mevalarini ta’rif qilishdan bir soniya charchamagan[1].

Ayniqsa, bu sog‘inch adibning “Boburnoma” asarida katta mahorat bilan qalamga olingan. Bobur Mavoraunnahrdagi shaharlarni, ulardagi nabotot va hayvonot olamini, tarixiy shaxslarning xarakterlarini tasvirlaganda, ularga cheksiz mehr-muhabbat bilan, chinakam farzandlik tavozesi bilan yondashadi. Xususan, Andijon haqida: “Oshlig‘i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo‘lur. Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm ermas. Andijonning noshpotisidan yaxshiroq noshvoti bo‘lmas. Eli turkdur. Shahr va bozorasida turki bilmas kishi yo‘qtur. Elining lafzi qalam birla rosttur”; Marg‘ilon haqida: “Pur ne’mat; anori va o‘rugi asru xo‘b bo‘lur. Bir jins anor bo‘lur, “dona kalon” derlar, chuchukligida zardolu mayxushligidin andak choshni bor”; Axsi haqida: “Qovuni yaxshi bo‘lur. Bir nav’ qovundurkim, “Mir Temuriy” derlar, andoq qovun ma’lum emaskim olamda bo‘lg‘ay”; Samarqand haqida: “Bu rub’i maskunda Samarqandcha latif shahr kamroqdur. Uzumi va olmasi va qovuni va anori, balki jami mevasi xo‘b bo‘lur. Xo‘b nonvoliqlari va oshpazliqlari bordur. *Olamda yaxshi qog‘az Samarqanddin chiqar”* singari haqqoniy satrlarni yozish, xolis baho berish uchun shu yurtni sevish, uning har bir qarich yerini, bu yerlarning xususiyatlarini mukammal bilish zarur edi. Hazrat Boburda bu fazilatlarning barchasi mujassam bo‘lgan.

Ikkinchidan, Bobur xarakterida unga temuriylardan meros bo‘lib o‘tgan to‘g‘rilik, rostlik, har bir ishga adolatpeshalik bilan qarash xislati kuchli edi. Amir Temurning “Kuch adolatdadir” degan shiori unga ham o‘tgan bo‘lib, har bir hodisaga yondashganda, bu shior unga madad bo‘ldi. Bu haqda Bobur “Boburnoma”da otasi Umarshayx Mirzodan ibrat bo‘lib qolgan bir voqeani qalamga oladi: “Adolati bu martabada ediki, Xitoy karvoni keladurganda, Andijonning sharqiy tarafidag‘i tog‘larning tubida ming o‘yluk korvonni andog‘ qor bosdikim, ikki kishi qutuldi. Xabar topib muhassillar yiborib, korvonning jami jihotini zabt qildi. Har chandikim vorisi hozir yo‘q erdi, bovujudki ehtiyot saxlab, bir-ikki yildin so‘ngra Samarqand va Xurosondin vorislarini tilab kelturub, mollarini solim topshurdi”. Otasidan o‘tgan bu fazilatga Bobur taxtda o‘tirganida ham, qo‘lida qilich tutib jangga kirganida ham, g‘amli kunlarida ham, shodon onlarida ham sodiq bo‘lib qoldi. Masalan, Qorabog‘ yaqinidagi Oqsaroy degan joyda “Seydim Ali darbonning bir o‘bdon navkari birovning bir ko‘za yog‘ini tortib olg‘an uchun eshikka kelturib, tayoqlattim, tayoq ostida-o‘q joni chiqdi”, deb yozadi. Qalot degan joyda Hindistondan kelgan savdogarlarni “Aksar barin bo‘ldilarkim, mundoq yog‘iylik mahalda yog‘iy viloyatig‘a keladurganni talamoq kerak, men rizo bo‘lmadim. Dedimkim, savdogarning ne gunog‘i bor?” – deya ularga ozor yetkazishlariga yo‘l qo‘ymaydi. Ayniqsa, Boburning halolligi, pok e’tiqodliligi, to‘g‘ri so‘zliligi temuriy shohlarga, shahzodalarga, sarkardalarga, ularning ulamolari-yu umarolariga bergan ta’rif-u tavsiflarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu borada Bobur o‘z otasidan tortib, tog‘alarigacha, amakilari-yu yaqinlarigacha – barchasining yaxshi-yomon tomonlarini birma-bir tasvirlab o‘tadi. Bu narsa bugungi avlodga, ayniqsa, ilm-hunar o‘rganish borasida o‘z ustida tinimsiz ishlashi lozim bo‘lgan yoshlarga har tomonlama o‘rnak bo‘lishi darkor.

Uchinchidan, Bobur o‘z zamonasining ilg‘or fikrli, ma’rifatli kishilaridan biri sifatida yaratish, yangi binolarni, bog‘-u rog‘larni, saroylarni qurish bilan mashg‘ul bo‘ldi. O‘z yurti Andijon-u Samarqandda qura olmagan binolarni Afg‘onistonda, Hindistonda barpo etishga harakat qildi.

“Boburnomada”da uning bunyodkorligini, yaratuvchanligini tasdiqlovchi satrlarga juda ko‘p duch kelamiz. Masalan, “Odinapur qo‘rg‘onining olida, janubiy tarafida, bir balandida tarixi to‘qqiz yuz o‘n to‘rtta bir chahorbog‘ soldim”; “Istalifcha kent ma’lum emaskim xeyli yerlarda bo‘lg‘ay. Ulug‘ rud kentning ichidin oqar. Bu kentta Bog‘i Kalon otlig‘ Ulug‘bek mirzoning bir mag‘sub bog‘i bor erdi. Men egalariga baho berib oldim. Bog‘ning o‘rtasidin bir tegirmon suyi hamisha joriydir. Bu ariq yoqasida chinorlar va daraxtlardur, burun ariq egri-bukri va besiyoq erdi. Men buyurdimkim, bu ariqni reja va siyoq bila qildular. Bisyor yaxshi yer bo‘ldi”, – deya o‘zining bunyodkorlik borasidagi ishlarini e’tirof etadi. Xuddi shunday ulug‘ ishlarni G‘azni, Qobul, Ogra, Piro‘zpur, Dulpur degan joylarda amalga oshiradi, joylar tanlab, bog‘lar barpo etdi, atrofini obod qildi.

Boburning yaratuvchanligi uning Farg‘onadan mevali daraxt ko‘chatlarini afg‘on, hind yerlariga olib borib ektirishida ham ko‘rinadi. Bu haqda uning o‘zi shunday deb yozadi: “Qobul va kentlarida mevalardin uzum va anor va o‘ruk va olma va bihi va amrud va shaftolu va olu va sanjid va bodom va yang‘oq ko‘ptur. Men olu-bolu niholi keturib ekturubmen, yaxshi olu-bolular bo‘ldi va hanuz taraqqiyda edi”. Buday holat ilm-fanda iqlimlashtirish deb ataladi.

To‘rtinchidan, Bobur yashagan davr jang-u jadallarga, to‘s-to‘polonlarga to‘la, shiddatli bir davr edi. Har bir yigit kishi chavandozlik, qilichbozlik, kamon-

[1] Қамар Райис. Бобур шахсияти ва шеърияти. – Андижон нашриёт-матбаа ОАЖ, 2007. –Б. 14.

bozlikdan boxabar bo‘lishi talab etilardi. Bobur saroy tarbiyasini ko‘rgan shaxs sifatida bularning barchasidan nafaqat xabardor bo‘lgan, balki u o‘sha davrning mard va qo‘rqmas, matonatli, shijoatli jasur jangchilardan, sarkardalardan, urush taktikasini mukammal egallagan sara lashkarboshilardan biri edi. Ot minishda, qilichbozlikda, suzishda, kamon otishda unga teng keladigan navkarlar kam bo‘lgan. Bobur janglarda toblangan, purtajriba, harb ishining hadisini olgan hukmdorlardan sanalardi.

“Boburnoma”dan olingan “Mahkam zarb sovuq edi. Ul martabada sovuq edikim, ushul ikki-uch kunda ikki-uch kishi bu orada sovuqning shiddatidin o‘lub edi. Bir ariq suyidakim yoqalari qalin muz to‘ngub edi, o‘rtasi suvning tezligi jihatidin yax bog‘lamaydur edi, bu suvg‘a kirib g‘usl qildum. O‘n olti qatla suvg‘a cho‘mdum. Suvning sovuqlig‘i xeyli ta’sir qildi”, – degan satrlar Boburning jismoniy jihatdan toblanganini, baquvvatliligini ko‘rsatib turibdi. U janglarda yuz, balki ming bor yog‘iy bilan yuzma-yuz kelgan, ammo qo‘rqib ortiga chekinmagan, har vaqt dushmaniga tik boqib, ularga qarshi mardonavor kurashgan. “Yog‘iyni ko‘chadin qochirub tuzg‘a chiqorib, qilich tegurur mahalda otimning oyog‘iga o‘qladilar. Otim bukilib, yog‘iyning o‘rtasig‘a meni yerga urdi”; “Ahmad Yusufbek iztiroblar qilib, har zamon aytadurkim: – Yalong‘och mundoq kirib borasiz, ikki-uch o‘qni ko‘rdumkim, boshingizdin o‘tti. Men dedimkim: – Siz mardona bo‘lung, mening boshimdan bundoqlar xeyli o‘tubtur”; “O‘zum bila andisha qildim. Dedimkim, kishi agar yuz, agar ming yashasa oxir o‘lmak kerak”; Har necha dedilarkim, havolga boring, bormadim. Ko‘ngulga kechdikim, borcha el qorda va chopqunda, men issiq uyda va istirohat bila munda borcha ulus tashvish bila mashaqqatta, men munda uyqu bila rohatta. Muruvvattin yiroq va hamjihatlikdin qiroq ishdur. Men ham har tashvish va mashaqqat bo‘lsa ko‘rayin, har nechuk el toqat qilib tursa turayin, bir forsi masal bor: “Marg bo yoron surast”(Do‘stlar bilan birgalikdagi o‘lim to‘ydir)[1].

Umuman olganda, biz – bugungi avlod Zahiriddin Muhammad Boburdan har tomonlama o‘rnak olsak arziydi. Undagi insonparvarlik, vatanparvarlik, keng mulohazalilik, mardlik va jasurlik bizga haqiqiy ibrat maktabidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning: “Yaqinda Xavfsizlik kengashi yig‘ilishida Zahiriddin Muhammad Bobur bobomiz haqida gapirdim. Bobur 12 ming askar bilan 100 ming askarni yenggan. O‘sha paytda shunday qilish mumkinmidi? Yo‘q. Bobomizga nima yordam berdi? Vatanparvarlik, g‘urur, iftixor, aql-zakovat” degan gaplari biz uchun dasturamal bo‘lib xizmat qilishi lozim. Zero, o‘rta asrlarda yashagan ulug‘ ajdodlarimizning namoyandalaridan biri sifatida Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi mana shunday sharafga va e’tiborga loyiqdir.

Rezume: The article responds to instructive events from the life and work of Zakhiriddin Muhammad Babur, who made a profound contribution to the history, culture, art and literature of the Uzbek people.

Резюме: В статье рассматриваются поучительные события в жизни и творчестве Захириддина Мухаммада Бабура, оставившего глубокий след в истории, культуре, искусстве и литературе узбекского народа.

[1] Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1991. –Б. 5-97.